



INTELLEKTUAL-FALSAFIY ROMANDA MUALLIF OBRAZI

Qurbonova Feruza Ilhomovna

v/b. Dotsent f.f.f.d.

Qarshi davlat texnika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası

e-mail: feruzaq42@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola ma’lumki, o‘zbek adabiyotshunoslari dunyo adabiyotida mavjud bo‘lgan adabiy syujetlarni nazariy jihatdan muhokama qilib, ularning xronikal syujet, konsentrik syujet, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet kabi turlarini alohida ta’kidlab ko‘rsatganlar. Xronikal syujet asosida yozilgan romanlarda voqealik ketma-ket, yil va sanalarning markaziy obraz hayotining o‘tishiga mos ravishda bayon qilinadi. Bunga Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Oybekning “Navoiy”, Pirmqul Qodirovning “Bobur” kabi romanlarini misol qilib keltirish o‘rinlidir. Konsentrik syujet asosiga qurilgan romanlarda voqea-hodisalar o‘zaro qandaydir ichki sabab va oqibat bilan bog‘lanadi. Bunda hodisalar biri ikkinchisini talab qiladi. Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz”, Abdulla Qahhorning “Sarob” romanlari bunga misol bo‘la oladi. Agar nasriy asar syujetiga retrospeksiya asos bo‘lsa, bunday romanlarda “chekinish”, “ortga qaytish” yuz beradi.

Kalit so‘zlar: syujet, konsentrik syujet, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet.

ABSTRACT: This article is known to have theoretically discussed the literary plots existing in world literature by Uzbek literary scholars, highlighting their types such as chronicle plot, concentric plot, retrospective plot, associative plot. In novels written on the basis of a chronicle plot, the sequence of events, years and dates is described in accordance with the passage of the life of the central character. It is appropriate to cite as examples such novels as “Bygone Days” by Abdulla Qodiriy, “Navoiy” by Oybek, and “Bobur” by Pirmqul Qodirov. In novels based on a concentric plot, events are interconnected by some internal cause and effect. In this case, one event requires the other. Examples of this are Ernest Hemingway’s “The Old Man and the Sea” and Abdulla Qahhor’s “Mirage”. If the plot of a prose work is based on retrospection, then in such novels there is a "retreat", a "return". **Key words:** plot, concentric plot, retrospective plot, associative plot.

АННОТАЦИЯ: Известно, что в данной статье узбекские литературоведы теоретически рассмотрели существующие в мировой литературе литературные сюжеты, выделив такие их виды, как хроникальный сюжет, концентрический сюжет, ретроспективный сюжет, ассоциативный сюжет. В романах, написанных на основе хроникального сюжета, последовательность событий, лет и дат описывается в соответствии с течением жизни центрального персонажа. Уместно привести в качестве примеров такие романы, как «Минувшие дни» Абдуллы Кодирова, «Навои» Ойбека, «Бобур» Пиримкула Кодирова. В романах, основанных на концентрическом сюжете, события связаны между собой некоторой внутренней причиной и следствием. В этом случае одно событие требует другого. Примерами этого являются «Старик и море» Эрнеста Хемингуэя и «Мираж» Абдуллы Каххора. Если сюжет прозаического произведения основан на ретроспекции, то в таких романах происходит «отступление», «возвращение».

Ключевые слова: сюжет, концентрический сюжет, ретроспективный сюжет, ассоциативный сюжет.

Bu tipdagi syujet asosida yozilgan romanlarga Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, Asqad Muxtorning “Chinor”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanlarini misol qilib keltirish mumkin. Assotsiativ syujet tizimi bevosita ruhiy po‘rtanalar bilan bog‘liq bo‘lib, buday asarlarda beixtiyor xayolga tolsh, nimanidir eslab qolish natijasida qahramonlar tabiatida yuz bergan ruhiy kechinmalar asosiy o‘ringa chiqadi. Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” kabi romanlari shu tipga misol bo‘la oladi. Isajon Sulton romanlaridagi syujet modifikatsiyasi masalasi o‘rganilar ekan, uning romanlarida syujet tiplarining o‘zaro uyg‘un kelishi ko‘zga tashlanadi. Xususan, shu modifikatsion uyg‘unlik e‘tiboridan “Genetik” romani alohida ajralib turadi. Roman voqealarining bayonida roviy asarning syujet chizig‘idagi hodisalarni xronikal tarzda hikoya qilayotgan bo‘lsa ham, ora-orada chekinadi – retrospeksion yo‘singa murojaat qiladi. Shunday vaziyatlar borki, birorta so‘z yoki voqea munosbati bilan romanning syujet chig‘izi assotsiatsiya ta’sirida boshqa yo‘nalishga buriladi. Roman matnida biror so‘z, hodisa yoki ism vositasida assotsiatsiyaga berilish holatlariga juda asosli va o‘rinli misollar uchraydi. Romanda Sofiya xola obrazining berilishi, shu ayolning taqdiri, kelinlik paytlari, hayot tashvishlariga ko‘milgan pallalari, shuningdek, keksalikdagi hayoti ham tasvirlanadi. Yozuvchi shu obrazni voqealar orasiga olib kirishda syujetning xayolga berilish, ortga chekinishi – retrospeksiya va assotsiatsiya tipidan unumli foydalanadi. Adib o‘z asarida Sofiya xolani tilga

olishga hozirlik ko'rib tabiat unsuri – osmonda nur sochayotgan Oy xususida shunday yozadi: “U maskan uzra tunlari yog‘dulangan Oymomo – faqat shu joylarning momosi. O‘zga makonlarda Oy bunaqa ko‘rinmaydi, nomiham momo emas, deydilar. Tog‘ orasidan qalqan yoki adoqsiz sahrolarning Oyi butunlay boshqa ko‘rinishga ega emish. Dov-daraxt isi anqigan kechalarda, tutlaru teraklar ortidan havolangan o‘zimizning oy juda aziz.

Tavba, Oy desam, xayolimda Sofiya xolam jonlanadi. Nihoyatda beozor, qalbi yorug‘likka to‘la mushtipar xotin edi. Sofiya xolam desam, yuksaklarda yog‘du sochgan ajoyib Oymomo yodga keladi”. Romanda Oymomo bilan Sofiya xola obrazi o‘zaro yonma-yon parallel tasvirlanadi. Adib ba‘zan o‘z qahramonini nafasat va beg‘uborlik ramziga uyg‘un tasvirlashni istagan mahalda Oyni esga oladi va Oyga qiyoslaydi. Gohida romanda Oy xususida fikr yuritilsa, uni Sofiya xola sifatida tushunish ham mumkinki, bunday obraz bilan tabiat unsuri o‘rtasidagi modifikatsiya romanga xos estetik go‘zallik va nafasat bag‘ishlaydi. O‘zaro qorishib kelgan betakror tasvir o‘quvchining ham e‘tiborini o‘ziga tortadi.

Aslida, har bir adib o‘ziga xos bir olam, o‘z estetik qiyofasiga ega ijodkor boshqadan ta’sirlanishi mumkin, ammo uni takrorlamaydi. Roman tarkibidagi turli komponentlar ham shu ijodkorning adabiy-estetik tamoyillarini namoyish etadi. Adabiyotshunos olimi Zulfiya Pardaeva romanga xos muhim bir masalaga juda o‘rinli urg‘u beradi: “Roman janrining yana bir e‘tiborga molik jihati shundaki, janrga xos bo‘lgan badiiy komponentlar har bir romanda o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqadi”. Jumladan, Isajon Sulton romanlaridagi adabiy-nazariy komponentlar ham o‘ziga xoslikka ega.

“Genetik” romanida “Sofiya xolam” degan sarlavhali maxsus bo‘lim bor. Tabiiyki, roman syujet va kompozitsiyasidan o‘rin olgan, ayniqsa, maxsus sarlavhaga chiqqan obraz yoki joy nomi roman strukturasi nisabatan kengroq tafsiloti bilan tasvirlanishi, asarning markaziga qo‘yilgan masala bilan ham puxta bog‘langan bo‘lishi lozim. Bunday poetik usul, dunyo adabiyoti, o‘zbek romanchiligi tarixida ham mavjud. Masalan, Mixail Bulgakov o‘zining “Usta va Margarita” romanining birinchi qismida “Pontiy Pilat”ni, ikkinchi qismida “Margarita”ni ichkarida kichik sarlavhaga olib chiqadi. Romanda har ikki qahramonga yetarlicha tavsif beriladi. Shu bilan birga, voqealar o‘sha qahramonlar ishtirokida yoki ularning ruhiy-psixologik muhitida yuz beradi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida “Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li”, “Yusufbek hoji” “Xushro‘ybibi va Zaynab” kabi fasllar bor. Bevosita fasllarning joy nomlari bilan atalganini Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida “Quva”,



“Samarqand”, “Kobul” tarzida berilishi va ular ham raqamlar bilan boblarga ajratilgan tarkibi kuzatiladi. Shunga mos ravishda “Genetik” romanida ma’lum bir bo‘limlar “Sofiya xolam”, “Ubay aka”, “Do‘st”, “Ustoz” tarzida nomlanadi. Bunday unsurlar ustida fikrlaganda, Isajon Sultonning dunyo romanchiligi va ayniqsa, o‘zigacha bo‘lgan ustoz o‘zbek adiblarining romanchilikdagi tajribalarini puxta o‘rgangani ma’lum bo‘ladi. Aslida, har qanday sarlavahaga chiqqin kishi yoki joy nomlari roman syujetida qandaydir vazifani bajarishi shart. Shu e’tibordan roman syujetida asosiy o‘rinda turadigan Sofiya xola obrazi “Sofiya xolam” faslida ancha batafsil beriladi: “Sofiya xolam – esini tanib-tanimasdan turmushga chiqqan qishloq ayoli edi. Danakdayligidan onasining yoniga kirib mitti mushtchalari bilan xamir qorgan, hovli supurgan, tomorqada o‘t yulgan, sigir-qo‘ylarga qaragan, qishning sovuqlarida o‘tin ko‘tarib sandalga olov qalagan... shu mehnatlar aro bir kuni kelin bo‘lishni, keng-mo‘l, issiq uyda bolalarini katta qilishni orzulagan bo‘lsa ajabmas.

Men esimni taniganimda esa kap-katta xotinga aylangan, birinchi turmushi buzilib, eri qiz tuqqani uchun haydab yuborgach, oradan qanchadir vaqt o‘tib, yoshi ancha katta boshqa bir odamga turmushga chiqqan edi” (O‘sha manba, 264-265-betlar). Romanga olib kirilgan har bir obraz o‘z qiyofasiga ega bo‘lishi, o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb etishi va umuman, ijodkorning g‘oyaviy pozitsiyasi uchun yordam berishi lozim bo‘ladi. “Genetik”da Sofiya xolaning turmush tarzini bayon qilish, umr yo‘llariga bir sidra nazar solishdan maqsad o‘zbek ayolining yaqin o‘tmishda boshidan kechirgan tashvishlarini, bir xillikda o‘tgan umrini tasvirlashdir. Ayni damda bir inson umrining naqadar mehnat-mashaqqatlar bilan o‘tganini tasvirlash ham adib uchun muhim bo‘lgan. Sofiya ismini Oy, Oymomoga bog‘lagan yozuvchi shu ayol taqdirini tugal beradi. “Sofiya xolam diyonatli, pokiza ayol edi. Unikiga o‘ynagani borardim. Borsam, darrov dasturxon yozib, qand-qurs, turshak opchiqardi. “Jiyanim meni ko‘rgani keldi” deb quvonib ketardi-da. Xolaning tomorqasida katta tut bor edi, shoxlariga chumchuqlar in qurgan bo‘lib, polaponlarini olishga qiziqardik. Lekin tepaga chiqqani qo‘rqardik, chunki u yerda katta ilon boriydi. Ilondan hayiqishimiz beshbattar qiziqtirardi, tut ostiga yaqin borolmasdan, uzoqroqdan turib shoxlariga o‘ralib olganmi-yo‘qmi deya kuzatardik” (O‘sha manba, 259-bet). Sofiya xolaning bolajonligi adib qalbida bolalikning beg‘ubor his-tuyg‘ularini, xayoliga joylanib qolgan shirin damlarini eslashga yordam beradi.

Roman qahramoni boshidan kechirganlarini eslab, bayon qilar ekan, ulg‘aygandan keyingi mahallarda ham Sofiya xolasini esidan chiqarmaydi. Uning huzuriga boradi, u bilan uchrashib gaplashadi. Bunda xronikaga asoslangan syujetga



munosib ravishda qahramonning hayot yo‘li ketma-ket beriladi. Ammo bu ketma-ketlikda berishning sababi, albatta, Sofiya ismining Oyni eslatishi – shu juftlik assotsiatsiyasidir. “Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga o‘xshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turg‘unniso, Xosiyat, Nazira, Ibodat... bo‘lib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yo‘q, umrini dalada dehqonchilik bilan o‘tkazgan buvam qaydan topib qo‘ya qolgan ekan? Tabiiyki, ma‘nosini ham bilmasdim. Ayol ismiga “oy” yoki “xon” qo‘shib aytilgani uchun, xolamni hamma “Sofiyaxon” yoki “Sofiyaoy” deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon “Sapiya”ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga ko‘proq yoqqani uchun, tungi bulutlar orasidan ko‘ringan xayoliy to‘lin oy manzarasini yodimga soladi”. Oy manzarasidan tashqari Sofiya xolasi allaqachonlardir tushida oyni ko‘rgan bo‘ladi. Darvoqe, birorta odam o‘z ismining ma‘nosini bilmasa, unga ismining ma‘nosi tushuntirilsa, ko‘zlari quv nab, juda mamnun bo‘ladi. Xo‘sh “Sofiya” nima ma‘noni anglatadi? “Men ulg‘ayganimda xolam kampir bo‘lib qolgan edi. U nurni, u yuzlarni haligacha sog‘inaman. Goho tun-kechalarda birdaniga ko‘rgim kelib qoladi. Mayin jilmayishini, yuzidagi poklik va musaffolikni qo‘msayman.

Ulg‘aygach, u ismning mazmunidan xabar topdim. “Sofiya” – yunonchada “ilohiy donolik”, arabchada “musaffolik” degan ma‘nolarni anglatishini bilganimda, “Albatta, xolamga aytaman, eshitib suyunadi” deb o‘ylaganman. U mahal xolamning menga mehri yanada ortgan, “polvon bolam” deb suyar edi”. Bu ism muhokamasida adib Sofiya ismini Muhammad alayhissalomga borib taqalishini ilovadagi izohida “Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ayoli, Sofiya onamizga ishora” deb eslatib o‘tadi. O‘quvchining xayoli uzoq tarixga qarab ketadi. Shu o‘rinda adib voqelik genezisini yana ham uzoqqa olib borib bog‘laydi. Romanning “Genetik” deb nomlanishi, uning asosiy qahramoni shu soha mutaxassisi bo‘lishi – bu alohida masala. Ammo Oymomo va Sofiya xola juftligi davomidan kelayotgan voqealar uzoq tarixga – Rasululloh (s.a.v.) zamonlariga va hatto undan ham uzoqroqqa borib taqaladi. Genetik – bu inson geni bilan mashg‘ul bo‘ladigan olim. Romanning syujet chizig‘ida Sofiya xolaning shu soha olimiga aloqador epizodlari bor. Olim jiyani Sofiya xolasining bir tola sochini maxsus laboratoriyada tekshiradi. Natijada juda g‘aroyib bir kashfiyotga duch keladi, ya‘ni “dunyo olimlarining aqlini shoshirib qo‘yadigan xazinaga – olam aro eng noyob, eng musaffo Momo Havo geniga ro‘para” keladi. Romanda olimning yoshlik chog‘laridagi voqealar sabab-natija kategoriyasiga mos ravishda asar matnida biri-birini taqozo qiladi. Qolaversa,



romandan kuzatilgan asosiy maqsad o'zbek xalqining geni juda qadimlarga borib taqalishini ta'kidlash hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Исажон Султон. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом. 2017.-Б. 197.
2. Исажон Султон. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ғ. Ғулом. 2011.-Б. 87.
3. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т.: Маънавият, 2000.-Б. 109.
4. Собиров О. Ўзбек реалистик прозаси ва фольклор. -Т.: Фан, 1979.-Б. 199.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. -Т.: Ўқитувчи, 1986. -Б. 408.
6. Тоғаев. О. Адиблар ва жанрлар. .-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти.1976. –Б. 352.
7. Умиров Х. Адабиётшунослик назарияси –Т: Янги аср авлоди. 2002.-Б.